

TARJIMASHUNOSLIKDA MAVJUD UMUMIY MUAMMOLAR VA ULARNING SABABLARI

Nabijonova Dilnavoz Nodirjonovna

UzDJTU 1-bosqich talabasi

nabijonovadilnavoz2@gmail.com

Bakirova Xilolaxon Botiraliyevna

Ilmiy rahbar, UzDJTU katta o'qituvchisi

Anotatsiya. Ushbu maqolada tarjimashunoslik sohasida uchraydigan umumiy muammolar atroflicha yoritilgan. Ayniqsa, zamonaviy davrda tarjimashunoslikning ahamiyati, unga bo'lgan talab va uning jamiyatdagi o'rnini haqida batafsil so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: tarjimashunoslik, muammolar, til, nomutanosiblik, fikriy chalkashlik, ma'nosiz tarjimalar, o'zlashma so'zlar, ixtisoslashuv, tilshunoslar, ta'lim tizimi, tarjima tahlili, jamiyatdagi o'rin, madaniyatlar o'rtasidagi ko'priklar, tilning boyligi, tarjimonning mas'uliyati

Abstract. This article provides an in-depth analysis of common issues encountered in the field of translation studies. Particular emphasis is placed on the importance of translation studies in the modern era, the demand for it, and its role in society.

Keywords: translation studies, issues, language, inconsistency, conceptual confusion, meaningless translations, loanwords, specialization, linguists, education system, translation analysis, societal role, bridge between cultures, language richness, translator's responsibility.

Аннотация. В данной статье подробно рассматриваются общие проблемы, возникающие в области переводоведения. Особое внимание уделено значимости переводоведения в современную эпоху, спросу на него и его роли в обществе.

Ключевые слова: проблемы, язык, несоответствия, путаница в понятиях, бессмысленные переводы, заимствованные слова, специализация, лингвисты, система образования, анализ переводов, роль в обществе, мост между культурами, богатство языка, ответственность переводчика.

KIRISH

Til rivoji millatning o'zligini aks ettiruvchi jarayonlardan biridir. Har bir tilning taraqqiyotida muvaffaqiyatlar, murakkab burilishlar va muammolar bo'lishi tabiiydir. Til millatning o'ziga xos xususiyatlarini, madaniyati va tarixini ifodalovchi ko'zgudir. Shu bois til bilan bog'liq masalalar har bir jamiyat uchun birlamchi ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

O'zbek tilining shakllanishi va rivojlanish tarixiga nazar solsak, XII-XIII asrlardan XX asr boshlarigacha ko'plab mumtoz shoirlar va adiblarning asarlari orqali tilimiz boyib bordi. Lutfiy, Atoyi, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Feruz,

Muqumiy, Furqat kabi ijodkorlarning yuksak san'at bilan bitilgan asarlari eski o'zbek tilining bugungi o'zbek tiliga asos bo'lib xizmat qildi. Xususan, *Alisher Navoiy* o'z asarlari bilan o'zbek tilining obro'sini yuksaltirib, uni dunyoga tanitdi. XII asrdan bugungi kungacha tilimizda ko'plab o'zgarishlar ro'y berdi. Ko'pgina so'zlar iste'moldan chiqdi, yangi so'zlar paydo bo'lib, ularning o'rnini egalladi. Bugungi kunda ham tilimiz rivojlanishda davom etmoqda, ayniqsa, tarjimashunoslik sohasida bu jarayon yaqqol namoyon bo'lmoqda. Tilning boyishi ko'pincha yangi tushunchalarni nomlash, boshqa tillardan so'zlarni o'zlashtirish va qo'shimchalar qo'shish orqali amalga oshadi. Tarjima amaliyoti til rivojida muhim o'rin tutadi. Biroq bu jarayon murakkab va mas'uliyatli bo'lib, undagi xatolar tilni boyitish o'rniga muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. [1]

Tarjima - bu so'z, tushuncha, matn yoki asarlarning bir tildan boshqasiga ma'nosini saqlagan holda o'girilishidir. Tarjima jarayoni nafaqat lingvistik bilim, balki tahlil, tahrir va atamalarni to'g'ri tanlashni talab etadi. Shu sababli, ona tilining boyligi va aniqligini asrash tarjima amaliyotining asosiy vazifasidir.

Tarjimaning muhimligi va hozirgi muammolari

Tarjima — bilimlar va madaniyatlar o'rtasida ko'prik bo'lib xizmat qiladigan muhim jarayonlardan biridir. Uning ahamiyati bir necha jihatlarida namoyon bo'ladi:

1. Bilimlar majmuasini kengaytiradi. Turli tillardagi ma'lumotlarning tarjimasi orqali o'rganilishi kerak bo'lgan bilimlar ombori kengayadi.

2. Tillarning imkoniyatlarini o'rganish imkonini beradi. Har ikki yoki undan ortiq tillarni qiyoslash orqali ularning ichki imkoniyatlari chuqurroq o'rganiladi.

3. Fikrlash doirasini kengaytiradi. Tarjima jarayoni atroflicha o'ylashga, bahslarda aniq va o'rinli dalillarni keltirishga yordam beradi.

Biroq, tarjimashunoslikda bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular jarayonni qiyinlashtiradi:

Nomutanosiblik. Bir tilga xos ma'no boshqa tilda noto'g'ri aks ettirilishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi "*brain drain*" iborasini so'zma-so'z tarjima qilsak, "*aqlarning sizib chiqishi*" degan ifoda kelib chiqadi. Bu ma'noni to'liq ifodalay olmaydi. To'g'ri muqobili esa "*ziyo qatlamining ketishi*" bo'ladi.

Fikriy chalkashlik. So'zma-so'z tarjimalar ko'pincha noto'g'ri yoki kesatiq ma'nolarni beradi. Masalan, yuqoridagi "*brain drain*" iborasi so'zma-so'z tarjima qilinganida mazmun chalkashlikka olib kelgan.

Ma'nosiz tarjimalar. Texnologik vositalar, masalan, Google Translate yoki boshqa avtomatik tarjimonlarda mazmun yo'qolishi mumkin. Masalan, "*Moocksp.ru*" platformasida shunday noto'g'ri tarjimalar uchraydi:

- "*Agar ishtirok etsangiz, aktyor ko'tarib bo'lmaydi.*"
- "*Kechirasiz, teatrga taqlid qiladigan kabetga o'xshaydi.*"

Ushbu iboralarning mazmunan tushunarsizligi tarjimada e'tiborning yetarli darajada bo'lmaganini ko'rsatadi.

O'zlashmalarning ko'pligi. Ba'zi so'zlarning o'zbek tilida muqobili bo'lsa-da, o'zlashma shakllardan foydalanish *kengaymoqda* (masalan, *kseñofobiya*, *immigratsiya*, *ekspluatatsiya*). Bu esa:

- O'zbek tilidagi muqobil so'zlarning iste'moldan chiqishiga,
- Tilning tub boyligining torayib, ma'nan qashshoqlanishiga,
- O'zga tillarning ustuvor bo'lib qolishiga olib keladi.[1]

Atamalarga oid muammolar. Atamalar ilmiy tafakkurning asosiy vositalaridan biri bo'lib, ma'lum bir sohani ifodalaydigan maxsus leksik birliklardir. Ular aniq semantik chegaralarga ega bo'lib, ilmiy matnlar mazmunini to'g'ri anglash va tushinishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy tildagi ko'p ma'noli so'zlar atamalar qatoriga kirganida, faqat bitta ma'noni ifodalab, ilmiy muloqot uchun moslashadi. Shuning uchun tarjimon ilmiy lug'atlardan foydalanish va mavzuga oid yetarli bilimga ega bo'lishi shart. Bu qoidaga rioya qilmaslik xatolarga olib keladi, natijada tarjima mazmunini buzilishi kuzatiladi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, ilmiy matnlardagi lug'at boyligining 20 foizini aynan atamalar tashkil etadi.

Grammatikaga oid muammolar. Ilmiy matnlarning grammatik xususiyatlari ham tarjimada qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Masalan, ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada ayrim fe'llar va ot birikmalari to'g'ri uzatilmasa, leksik ma'no yo'qolishi kuzatiladi. Shuningdek, majhul nisbatdagi fe'llar, mavhum fe'llar, va semantik yuklama kabi grammatik elementlarni o'zbek tiliga to'g'ri moslashtirish tarjimondan maxsus ko'nikmalarni talab qiladi. Ilmiy matnlarda grammatikani aniqlik bilan uzatish muhim bo'lib, tarjimon ushbu vazifani sifatli bajarishi lozim.

Tarjimaning umumiy nazariyasi tarjima jarayonining asosiy qoidalarini belgilaydi. Ushbu nazariyaga ko'ra, sifatli tarjima filologik tahlildan boshlanib, badiiy ijod yoki ilmiy tahrir bilan yakunlanishi kerak. Rus tilshunosi A.V. Fedorov ushbu yondashuvni keng ko'lamda yoritib bergan.

Maxsus nazariya ikki til o'rtasidagi ekvivalentlar va ularni tanlash mezonlarini o'rganadi. Bu jarayonda til juftliklarini taqqoslash usuli qo'llanilib, bir tilning leksik va grammatik imkoniyatlari boshqa tildagi muqobillar bilan solishtiriladi.

Transformatsion nazariya tarjima jarayonida matn ma'nosini to'liq ifodalash maqsadida o'zgarishlar kiritishni nazarda tutadi. Ba'zan to'g'ridan-to'g'ri tarjima ma'noni noto'g'ri aks ettirishi mumkin, bu esa tarjimonda ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Muammolarni Bartaraf Etish Yo'llari

1.Ixtisoslashuv tamoyiliga rioya qilish. Ma'lum bir soha atamalarini tarjima qilishda aynan shu sohaning mutaxassislari ishtirok etishi kerak.

2.Tilshunoslarning ishtiroki. Tarjima jarayonida tilshunoslarning qatnashuvi nafaqat tarjima sifatini oshiradi, balki tilning taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3.Ta'lim tizimida tarjimashunoslikka e'tibor qaratish. Maktab darsliklarida tarjimashunoslik bo'yicha kichik matnlar va tushunchalarni o'rgatish foydali bo'ladi.

4.Tarjima yakunini tahlil qilish. Tarjima yakunlangach, mutaxassislar bilan birgalikda uning mazmuni va to'g'riligi konferensiyalar yoki maxsus muhokamalarda ko'rib chiqilishi kerak.

5. Til imkoniyatlaridan unumli foydalanish. Tarjima jarayonida o'zbek tilining boy imkoniyatlari, iboralari va zahiralaridan maqsadli foydalanish talab etiladi.

Tarjimaning har bir bosqichi millatning tili va madaniyatini asrab-avaylash, uni boyitish uchun xizmat qilishi kerak. Shuning uchun bu jarayonni chuqur tahlil va jiddiy yondashuv bilan amalga oshirish lozim. Til millatning ko'zgusi ekan, uni saqlash va rivojlantirish hammamizning burchimizdir.[2]

Transformatsion nazariya va tarjima jarayoni. Ilgarigi davrlarda kompyuterlar ajoyib ixtiro sifatida qaralgan bo'lsa, bugungi kunda ular kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. So'nggi texnologik yangiliklardan biri – *virtual haqiqat tizimi* bo'lib, u foydalanuvchilarni Gavayidagi plyajdan tortib inson tanasining ichki tuzilishigacha bo'lgan ekzotik joylarga olib borishga imkon yaratadi. Ushbu misol ingliz tilidan o'zbek tiliga bajarilgan tarjimada transformatsion yondashuvning qo'llanganligini namoyon etadi. Ya'ni, asl matnning mazmuni o'zbek tilida boshqa so'z va tuzilmalar yordamida ifodalanib, matn to'liq tarjima qilinmagan, balki transformatsiyalangan.

Tarjimaning transformatsion modeli amerikalik tilshunos N. Xomskiyning "*transformatsion yoki generativ grammatika*" g'oyalari bilan bog'liq. Ushbu yondashuvga ko'ra, tarjima jarayoni boshlang'ich til birliklari va tuzilmalarini tarjima tilidagi ekvivalent birlik va tuzilmalariga sintaktik aylantirishdan iboratdir. Bu jarayonda tarjimon boshlang'ich matn mazmunini yangi tilga moslashtiradi, lekin uning asl ma'nosini saqlab qolishga intiladi.

Transformatsion nazariya tarjima jarayonining bosqichlari va usullarini chuqur o'rganishga yordam beradi. Bu yondashuvning ahamiyati amerikalik tarjimashunoslar K. Nayde, B.O. Kads va V. Koller asarlarida ham qayd etilgan. Ushbu nazariyaga ko'ra, til juftligi bilan ishlashda har bir tilning o'ziga xos tuzilmalarini aniqlash va ularni moslashtirish tarjimaning muhim qismidir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tarjimashunoslik nafaqat tillararo bog'liqlikni ta'minlash, balki madaniyatlar o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaruvchi muhim sohadir. Biroq, bu jarayonda nomutanosiblik, fikriy chalkashlik, ma'nosiz tarjimalar va o'zlashma so'zlarning ko'pligi kabi muammolar mavjud. Ularni bartaraf etish uchun ixtisoslashuvga e'tibor qaratish, tilshunoslarni jalb qilish, ta'lim tizimida tarjimashunoslikka asos yaratish va tarjimalarni tahlil qilish kabi chora-tadbirlar zarur. Faqat jiddiy yondashuv orqali tarjimashunoslikni rivojlantirib, tilimiz boyligini saqlashga va uni kengaytirishga erishish mumkin. Transformatsion tarjima nazariyasi tilshunoslikda muhim usullardan biri bo'lib, tarjimonlarga matnning ma'nosini saqlagan holda turli tuzilmalar va birliklarni moslashtirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv tarjima jarayonida matn mazmunini to'g'ri ifodalashga, uning aniqligi va mantiqiy izchilligini ta'minlashga xizmat qiladi. Tarjima nafaqat til o'zgartirish jarayoni, balki mazmunni yangi madaniy va lingvistik muhitga moslashtirish san'ati ekanligini namoyon etadi. Transformatsion nazariyaning qo'llanilishi tarjimonlardan yuqori malaka, lingvistik bilim va mavzuni chuqur tushunishni talab qiladi. Ayniqsa, ilmiy va texnik matnlar bilan ishlashda, bu yondashuvning ahamiyati yanada ortadi.

Shu sababli, transformatsion tarjima nafaqat tarjima sifati uchun, balki madaniyatlararo kommunikatsiyani mustahkamlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami" Nargiza Erkaboyeva (2017-yil. 10-bet)
2. Kuvonov Zarifjon Maxsiddin o'g'li. "Die vorteile und nachteile der online-bildung." Academic research in educational sciences 2.CSPI conference 2 (2021): 478-481.
3. Абдурахмонова, З. Ю. (2021). ЗАМОНАВИЙ ЎҚИТИШНИНГ МУАММО ВА ЕЧИМЛАРИДА САМАРАЛИ ЁНДОШУВ. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 1189-1193.

Foydalanilgan saytlar

1. "Moocksp.ru" tarjimalari.